



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARGA TA'LIM BERISHDA INNOVATSION METODLAR

Kenjayeva Xurshida Abdirazzoqovna

Qarshi shahar 46-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda innovatsion metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv va texnologik yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning darsga jalb qilinishi va bilim olish sifati sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, maqolada innovatsion metodlarni joriy etishda uchraydigan qiyinchiliklar va ularni hal qilish yo'llari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion metodlar, boshlang'ich ta'lim, interaktiv yondashuv, axborot texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar.

Аннотация

В данной статье анализируется значение инновационных методов в обучении учащихся начальных классов. В современном образовательном процессе интерактивные и технологичные подходы служат повышению интереса учащихся, развитию навыков самостоятельного мышления, повышению эффективности обучения. Результаты исследования показывают, что в результате использования инновационных методов значительно повысилась вовлеченность учащихся на уроке и качество обучения. Также в статье рассматриваются трудности, возникающие при внедрении инновационных методов, и пути их решения.

Ключевые слова: инновационные методы, начальное образование, интерактивный подход, информационные технологии, педагогические инновации.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

Annotation. This article analyzes the importance of innovative methods in teaching primary school students. Interactive and technological approaches in the modern educational process serve to increase students' interest, develop independent thinking skills, and increase educational efficiency. The results of the study show that as a result of the use of innovative methods, student engagement in the lesson and the quality of knowledge acquisition have significantly increased. The article also discusses the difficulties encountered in the implementation of innovative methods and ways to solve them.

Keywords. innovative methods, primary education, interactive approach, information technologies, pedagogical innovations.

Kirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish – ularning kelajakdagi bilim olish jarayoniga asos soladigan muhim bosqichdir. Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion metodlar o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, bolalarning qiziqishini uyg'otish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim berishda innovatsion metodlarning ahamiyati, ularning natijalari va qo'llanilish usullari IMRAD usulida tahlil qilinadi.

Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishiab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'lash muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi[2].

Metodologiya.

Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida "Aqliy hujum", "Krassvord", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi" va "BBB" texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

maqolada dars jarayonining samarasi va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz. "Kamalak jilosi" metodini boshlang'ich sinflar uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o'qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so'zlarni turkumlarga ajratishda qo'g'irchoq, mashina, kuldi, yig'ladi, sariq, katta, kichik, to'qqiz kabi so'zlarni turkumlarga ajratish va ot so'z turkumiga doir so'zlarni ko'k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so'z turkumidagi so'zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo'llash mumkin[1].

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslangan holda amalga oshirildi:

- Adabiyotlar tahlili – innovatsion pedagogik metodlar bo'yicha ilmiy maqolalar o'rganildi.
- Eksperimental tahlil – innovatsion usullar asosida ta'lim olayotgan o'quvchilarning natijalari an'anaviy metodlar bilan taqqoslandi.
- Statistik tahlil – interaktiv va texnologik metodlarning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri baholandi.
- Empirik tadqiqotlar – o'qituvchilar va ota-onalar bilan intervyular o'tkazildi.

Natijalar.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin. 1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi. O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Interaktiv metodlar (o'yinli ta'lim, muammoli ta'lim) orqali o'quvchilarning darsga jalb qilinishi 45% ga oshdi.
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish (elektron darsliklar, multimedia resurslari) natijasida ta'lim samaradorligi 35% ga oshdi.
- Differensial yondashuv orqali har bir o'quvchining individual o'zlashtirish darajasi hisobga olindi.
- STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi) natijasida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalari rivojlandi.

Muhokama.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishini oshirish va ularga mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu metodlarni samarali qo'llash uchun quyidagi muammolar mavjud:

- O'qituvchilarning innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega bo'lishi zarur.
- Texnologik resurslarning yetishmovchiligi o'quv jarayonini to'liq raqamlashtirishga to'sqinlik qilishi mumkin.
- Ota-onalarning innovatsion metodlarga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va ularni farzandlarining ta'lim jarayoniga jalb etish muhim.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlarni joriy etish ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv va texnologik yondashuvlar orqali boshlang'ich ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Kelajakda o'qituvchilarni innovatsion metodlarga tayyorlash va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jo'rayeva Tursuntosh Odinayeva, Toshboyev Otabek Tursunovich. Boshlang'ich sinflarda yangi innovatsiyalardan foydalanish metodi.
2. Raxima Mavlvanova, Nargiz Raxmankulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya. Toshkent. 2013.
3. N.M.Qo'chqorova. Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlarning ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal October 2020 / Volume 1 Issue 7
4. Boymurotovna, X. N., Islambay o'g'li, I. A., & Ruxsora, B. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA PSIXOLOGIYADAGI ROLI. GOLDEN BRAIN, 2(16), 36-41.
5. Xidirova, N. B., qizi Oromova, S. S., Otajonova, K. R., qizi Begancheva, M. B., & qizi Tosheva, Z. X. (2024). IJTIMOIIY TARMOQLAR VA RAQAMLI AXBOROTLARNING PSIXIKAGA TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 2(21), 193-198.
6. Xidirova, N. B., qizi Oromova, S. S., Otajonova, K. R., qizi Begancheva, M. B., & qizi Tosheva, Z. X. (2024). BULUTLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING PSIXOLOGIYA FAOLIYATIDA QO 'LLANILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(21), 13-18.
7. Xidirova, N. B., Oromova, S. S. Q., & Otajonova, K. R. (2024). TALABALARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI. Indexing, 1(1).
8. Xidirova, N., Oromova, S., & Otajonova, K. (2024). Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo 'llash istiqbollari. Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati, 1(1), 18-21.
9. Xidirova, N. B. qizi Nomozova, FA (2024). RAQAMLI MATERIALLAR VA INTERAKTIV PLATFORMALAR YORDAMIDA TABIIY FANLARNI O 'QITISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 162-166.
10. Xidirova, N. B. qizi Muqimova, GZ (2024). EXCELDA DIAGRAMMALAR BILAN ISHLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 167-171.
11. Xidirova, N. B. qizi Oromova, SS, & Otajonova, KR (2024). MULTIMEDIALI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING PSIXOLOGIYADA QO 'LLANILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 157-161.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

12. Botirovich, X. S. Murodullo o'g'li, JOT, & Iskandar o'g'li, SB (2024). PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISHI. Modern education and development, 11(3), 120-126.
13. Normurodovna, A. M. (2025, February). TASHKILOTLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 310-317).
14. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISI BO'LISHDA BOSHLANG'ICH INGLIZ TILI DARSLARINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 350-357).
15. Axmedovna, B. S. (2025, February). O'ZBEKISTONDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 326-333).
16. Normurodovna, A. M. (2025, February). INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING INGLIZ TILI KURSIDAGI AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 302-309).
17. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. In International Educators Conference (pp. 358-365).
18. Axmedovna, B. S. (2025, February). INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'ZARO MULOQOTNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 318-325).
19. Boymurotovna, X. N., qizi Oromova, S. S., Otajonova, K. R., & qizi Uralova, K. J. (2024). MOLIYA-BANK SOHASIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI. GOLDEN BRAIN, 2(21), 86-90.